



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI

## SIRDARYO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

Izoh: 2025-yil 1-yanvar holatiga  
hamda 2024-yil yanvar-dekabr  
holatiga ma'lumotlar dastlabki,  
qolgan davrlar bo'yicha yakuniy  
ma'lumotlar keltirilgan.



## SIRDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI SONI

### XVI. DEMOGRAFIK HOLAT

Sirdaryo viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni **930,8** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **16,8** ming kishiga yoki **1,8 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **400,7** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **43,0 %**), qishloq aholisi soni **530,1** ming kishi (**57,0 %**) ni tashkil etdi. Viloyat ma’muriy-hududiy jihatdan 3 ta viloyat bo‘ysunuvidagi shahar va 11 ta tumanga bo‘lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga **217,5** kishiga to‘g‘ri keladi. Ma’muriy markazi – Guliston shahri bo‘lib, aholisi 102,1 ming kishi.

**Doimiy aholi soni**

**930,8**

*ming  
kishi*

**Tabiiy o‘sish**

**+17,6**

*ming  
kishi*

**Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi**

**Shahar joylarda**



**Qishloq joylarda**



**43,0%**

**57,0%**


## Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-dekabr holatiga



### Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2025- yil 1-yanvar holatiga



2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyatimizda doimiy aholi sonining 32,0 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,1 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 9,9 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
2025- yil 1- yanvar holatiga




**Erkaklar**




**467,5** ming kishi

**Ayollar**



**463,3** ming kishi




**Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi**

*Yanvar-dekabr holatiga ming kishi*

	2023- yil	2024- yil	O’sish sur’ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>914,0</b>	<b>930,8</b>	<b>101,8</b>
<i>shahar:</i>			
Guliston sh.	99,3	102,1	102,8
Shirin sh.	19,4	19,4	100,0
Yangiyer sh.	48,0	49,1	102,3
<i>tumanlar:</i>			

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Oqoltin t.	55,8	56,6	101,4
Boyovut t.	138,9	141,5	101,9
Sayxunobod t.	82,8	83,9	101,3
Guliston t.	79,6	81,1	101,9
Sardoba t.	70,3	71,4	101,6
Mirzaobod t.	80,4	82,3	102,4
Sirdaryo t.	137,2	139,3	101,5
Xovos t.	102,3	104,1	101,8


### Sirdaryo viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi 2025-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Sirdaryo viloyatida 2025- yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **217,5** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **3,9** kishiga ortgan (2024- yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **213,6** kishi to‘g‘ri kelgan).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Guliston shahrida **2 819,7** kishi, Yangiyer shahrida **1 643,2** kishi, Shirin shahrida **1 448,8** kishi, Boyovut tumanida **270,6** kishi, Sirdaryo tumanida **253,8** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Mirzaobod tumanida **129,5** kishi, Oqoltin tumanida **102,7** kishini tashkil etgan.

### QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR




### Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-dekabr holatiga




2024- yil yanvar-dekabr holatiga **22,1** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **24,0** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2024- yilga nisbatan **1,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr holatiga **25,7** promilleni tashkil etgan).

## VAFOT ETGANLAR




### Sirdaryo viloyatida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-dekabr holatiga



2024- yil yanvar-dekabr holatiga **4,5** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni etdi hamda bu ko‘rsatkich 2024- yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr holatiga **5,1** promilleni tashkil etgan).


### O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

*2025- yil 1-yanvar holatiga, kishi*




2024- yil yanvar-dekabr holatiga qayd etilgan o‘lim holatining **59,7 %** – Qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **4,0 %** – Ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **6,7 %** – Nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **6,9 %** – Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **2,7 %** – Yuqumli va parazit kasalliklardan **8,1 %** – O’simtalardan vafot etganlar va **11,9 %** – Boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

## QAYD ETILGAN NIKOHLAR




### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr holatiga birlik




2024- yil yanvar-dekabr holatiga **6,9** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti **7,5** promilleni tashkil etgan hamda 2024- yilga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr holatiga **8,0** promilleni tashkil etgan).

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi 2024-yil yanvar-dekabr holatiga




2024-yil yanvar-dekabr holatiga Sirdaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **50,6** % farzandsiz, **25,8** % bitta farzand bilan, **23,6** % ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

### NIKOHDAN AJRALISHLAR



## Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr holatiga birlik



2024- yil yanvar-dekabr holatiga **1,5** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,6** promilleni tashkil etgan hamda 2024- yilga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr holatiga **1,7** promille tashkil etgan).

## JAMI KO‘CHIB KELGANLAR



## Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr holatiga




2024- yil yanvar-dekabr holatiga **7,6** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga nisbatan ko‘chib kelish koeffitsiyenti **8,2** promilleni tashkil etgan hamda 2024- yilga nisbatan **0,9** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr holatiga **7,3** promilleni tashkil etgan).

## JAMI KO‘CHIB KETGANLAR



## Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr holatiga



2024- yil yanvar-dekabr holatiga **8,4** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga nisbatan ko‘chib ketish koeffitsiyenti **9,1** promilleni tashkil etgan hamda 2024- yilga nisbatan **0,6** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr holatiga **8,5** promilleni tashkil etgan).

## AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2024-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar soni 7 580 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni 8 421 kishini, migratsiya saldosi minus -841 kishini tashkil etdi. (2023-yil yanvar-dekabr oylarida minus -1 150 kishini tashkil etgan).

## Aholining migratsiya ko‘rsatkichlari (yanvar-dekabr, kishi)

	<b>Kelish</b>		<b>Ketish</b>		<b>Migratsiya saldozi</b>	
	<b>2023- yil.</b>	<b>2024- yil.</b>	<b>2023- yil.</b>	<b>2024- yil.</b>	<b>2023- yil.</b>	<b>2024- yil.</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>6 589</b>	<b>7 580</b>	<b>7 739</b>	<b>8 421</b>	<b>-1 150</b>	<b>-841</b>
shaharlar						
Guliston	1 586	1 887	1 335	1 410	251	477
Shirin	253	218	278	356	-25	-138
Yangiyer	841	883	577	634	264	249
tumanlar:						
Oqoltin	311	436	463	572	-152	-136
Boyovut	576	810	1 036	1 067	-460	-257
Sayxunobod	62	78	505	474	-443	-396
Guliston	815	804	586	811	229	-7
Sardoba	299	387	555	602	-256	-215
Mirzaobod	670	857	671	685	-1	172
Sirdaryo	663	616	799	856	-136	-240
Xovos	513	604	934	954	-421	-350

### **Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar**

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıladı.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migrations o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**

**Tel: 67 236-70-00**